

Begzod M. BAKIROV,
Doctor of philosophy (PhD),
International Islamic Academy Of Uzbekistan,
A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: Begzod271284@gmail.com

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-2/13

**«NAVOBIG‘ AL-KALIM» ASARI
BALOG‘ATIGA XIZMAT QILGAN
LEKSIK VOSITALAR VA UNDA
QO‘LLANGAN TAJNIS (JINOS) SAN‘ATI**

**THE LEXICAL TOOLS THAT SERVED
THE RHETORIC OF THE WORK
«NAWABIGHU-L-KALIM» AND THE ART
OF TAJNIS (JINAS) USED IN IT**

**ЛЕКСИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА
ХУДОЖЕСТВЕННОЙ
ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ
В РИТОРИКЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ
«НАВАБИГ АЛ-КАЛИМ», И
ИСПОЛЬЗОВАННОЕ В НЕМ
ИСКУССТВО «ТАДЖНИС» («ДЖИНАС»)**

KIRISH

Ushbu maqola Mahmud Zamaxshariyning «Navobig‘ al-kalim» asarida qo‘llangan tajnis san‘ati, uning turlariga, asar balog‘atiga xizmat qilgan leksik vositalarga bag‘ishlangan, bo‘lib, unda jinosning barcha turlari va leksik vositalar misollar bilan batafsil yoritilgan. Har bir o‘ziga xos jihatlar bilan ajrab turadi. Mazkur asar ham mo‘jaz bo‘lishiga qaramay, juda ko‘p badiiy san‘atlarni o‘z ichiga olgan. Aynan shu san‘atlarning yuzaga chiqishida, ya‘ni asar balog‘atiga xizmat qilgan leksik vositalar asosiy vazifani bajaradi. Ular misollar yordamida keng yoritildi, olingan iqtiboslar tarjima va sharhlari bilan keltirildi.

ASOSIY QISM

Mahmud Zamaxshariyning «Navobig‘ al-kalim» asarida badiiy san‘atlarni qo‘llanganda fonetik vositalardan qay tarzda foydalanganini tahlil qilish uchun mazkur lingvistik vositalar haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda ba‘zi badiiy san‘atlar faolroq qo‘llangan, ba‘zilari qo‘llanmagan bo‘lishi mumkinligini hisobga olib, har

bir badiiy san‘at haqida uning nazariyasini keltirib o‘tib, so‘ngra unga «Navobig‘ al-kalim» asarda qo‘llangan qay tarzda qo‘llanganligi keltirib o‘tildi va har bir bo‘lim so‘ngida umumiy xulosalar berildi.

Kalomga husn beruvchi badiiy vositalarning hosil bo‘lishi, albatta, tilda mavjud bo‘lgan fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlardan kelib chiqib, shu tilda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan tilshunoslik hodisalari chegarasida amalga oshadi. Tillarning o‘zaro umumiy xususiyatlari bo‘lgani kabi bir-biridan farq qiluvchi o‘ziga xos jihatlar ham mavjud.

Shunga ko‘ra barcha tillarda faol bo‘lgan badiiy san‘atlar bilan bir qatorda ayrim tillar uchun faol bo‘lmagan san‘atlar bor. Tadqiqotning mazkur bobida arab tili uchun faol bo‘lgan san‘at turlari grammatik xususiyatlariga ko‘ra g‘arb tilshunosligida o‘rganib kelinayotgan tasnif asosida tahlil qilindi. Arab xatida yozilgan badiiy asarlarda shu yozuv xususiyatlaridan ham go‘zallik namunasi sifatida foydalanganlar, ammo biz ilmiy ishimizda qo‘yilgan rejalarda bo‘lmagani uchun grafik vositalarga oid qoidalar keltirib o‘tmadik.

Arab balog‘at ilmining badi‘ qismiga kiruvchi san‘atlarning ba‘zilarini amalga oshirishda so‘zlarning tovush jihati muhim bo‘lsa, qolganlarida asosiy e‘tibor so‘zlarning ma‘nolariga beriladi. Shunga ko‘ra saj va jinos (tajnis) san‘atlarini qo‘llashda so‘zlarning tovush jihati muhim bo‘lgani uchun bu san‘atlar «al-muhassinot al-lafziyya» deb nomlanadi (Rustamiy Salima, 2019 O‘rta asrlar balog‘at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar). Tovushdoshlikning o‘zi bir necha ko‘rinishga ega bo‘lib, bular nutqqa turli miqdor va darajada husn bag‘ishlaydi. Bularning eng husndori va eng ko‘p foydalaniladigani so‘z oxiridagi tovushdoshlik bo‘lib, bundan so‘z ustalari tomonidan nazmda qofiya va nasrda saj yasaladi.

Badiiy vositalar arab filologiyasida balog‘at ilmining badi‘ bo‘limida o‘rganilsa, g‘arb filologiyasi va ular orqali bugungi kun o‘zbek tilshunosligida «stiliistik vositalar», «badiiy hissiy-ta’sirchan lingvistik vositalar tizimi», adabiyotshunoslik sohasida «badiiy san‘atlar» yoki «she’riy san‘atlar» kabi turli nomlarda o‘rganiladi. Shuningdek, ularning tasnifi ham sharq filologlari tasnifidan farq qiladi, ya‘ni arab balog‘atida badi‘ san‘atlarni ularning san‘at hosil qilishdagi yetakchi jihatini e‘tiborga olgan holda lafziy va ma‘noviy guruhlariga ajratilsa, ajam xalqi lafziy-ma‘noviy turni ham kiritgan.

Arab tilidagi manbalarda badiiy san‘atlar «lafziy bezaklar» (al-muhassinotu-l-lafziyya – المحسنات

Annotatsiya. Ushbu maqola Mahmud Zamakhshariy o'zining «Navabig'u-l-kalim» asarida badiiy san'atlarni qo'llaganda fonetik vositalardan qay tarzda foydalanganini tahlil qilish maqsad qilib olingan. Bunda ba'zi badiiy san'atlar faolroq qo'llangan, ba'zilari qo'llanmagan bo'lishi mumkinligini hisobga olib, har bir badiiy san'at haqida uning nazariyasini, so'ngra unga «Navabig'u-l-kalim» asarda qay tarzda qo'llangani keltirib o'tildi va so'ngida umumiy xulosa berildi.

Badiiy vositalarning hosil bo'lishi muayyan tilda ro'y berishi mumkin bo'lgan tilshunoslik hodisalari chegarasida amalga oshadi. Shunga ko'ra barcha tillarda faol bo'lgan badiiy san'atlar bilan bir qatorda ayrim tillar uchun faol bo'lmagan san'atlar bor. Maqolada arab tili uchun faol bo'lgan san'at turlari grammatik xususiyatlariga ko'ra g'arb tilshunosligida o'rganib kelinayotgan fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlardan kelib chiqib tasnif qilish ham asosiy maqsad qilib olingan. Arab xatida yozilgan badiiy asarlarda shu yozuv xususiyatlaridan ham go'zallik namunasi sifatida foydalanilgan. Natijada yozuv san'atiga oid qoidalar ham shakllangan bo'lib, ular grafik vositalar sifatida tasnifga kiritildi.

Kalit so'zlar: jinos, balog'at ilmi, al-muhassinotul-lafziyya, al-muhassinotul-l-ma'naviyya, tiboq, balog'at ilmi, mutobaqa, muqobala, tashbeh.

Abstract. The purpose of this article is to analyze how Mahmud Zamakhshari used phonetic tools when using artistic arts in the work "Nawabighu-l-kalim". Taking into account that some artistic arts may have been more actively used, some may not have been used, his theory was mentioned about each artistic art, then how it was used in the work "Nawabighu-l-kalim" was described, and finally a general conclusion was given.

The formation of artistic tools takes place within the limits of the linguistic phenomena that can occur in this language. Accordingly, there are arts that are active in all languages, as well as arts that are inactive for some languages. The art forms that are active for the Arabic language are classified according to their grammatical characteristics based on the phonetic, morphological, lexical, and syntactic characteristics studied in Western linguistics. In artistic works written in Arabic script, these writing features were also used as an example of beauty. As a result, the rules related to the art of writing were formed, and they were included in the classification as graphic tools.

Keywords: tajnis, rhetoric, al-muhassinatu-l-lafziyya, al-muhassinatu-l-ma'naviyya, ilm ul maani, ilm ul bayan, ilm ul badi', tibaq, mutabaqa, muqabala, tashbih.

Аннотация. Цель статьи заключается в анализе способа применения Махмудом Замахшари фонетических инструментов при использовании средств художественной выразительности в произведении «Навабиг аль-калим». Учитывая, что некоторые средства художественной выразительности могли быть использованы чаще, а некоторые, возможно, не применялись, в статье сначала дается теория для каждого средства художественной выразительности, а потом степень и способ его применения в произведении «Навабиг аль-калим», а конце делаются общие выводы.

Формирование средств художественной выразительности происходит в пределах тех языковых явлений, которые могут иметь место в данном конкретном языке. Соответственно, есть средства художественной выразительности, которые используются во всех языках, а есть средства, не используемые в некоторых языках. Средства художественной выразительности, актуальные для арабского языка, классифицируются по их грамматическим характеристикам на основе фонетических, морфологических, лексических и синтаксических особенностей, изучаемых в западном языкознании. В художественных произведениях, написанных арабской вязью, эти особенности письма также использовались в качестве образца прекрасного. В результате сформировались правила, связанные с искусством каллиграфии, классифицированные как графические средства.

Ключевые слова: джинас, риторика, аль-мухассинат аль-лафзия, аль-мухассинот аль-ма'навийя, илм аль-маани, илм аль-баян, илм аль-бади', тибак, илм аль-балага, мутабака, мукабала, ташибх.

الفطية), «ma'no go'zalliklari» (al-muhassinotul-l-ma'naviyya – المحسنات المعنوية) deb ataluvchi ikki guruhga ajratilgan (محسنات atamasi arabcha مُحَسِّنٌ وَمُحَسِّنَةٌ (zeb beruvchi) so'zlarining ko'plik shakli bo'lib, arab tilidagi manbalarda «sīn» harfi kasra bilan مُحَسِّنَات (muḥassinātun), ajam xalqlari tillari manbalarida «sīn» harfi fatha bilan مُحَسِّنَات

(muḥassanāt) tarzida qo'llanadi (Rustamiy Salima, 2019:240). Bu borada arab balog'atshunoslari orasida munozara bo'lmagan va hozirgacha badi' san'atlar shu tasnif asosida o'rgatiladi.

Ziynatlash gapning aslida lafzlariga daxldor bo'lsa, u lafziy bo'ladi. Unda ma'noning ham tahsinini ergashtirish durust emas.

Ushbu tahsinotlarning, xususan lafziy tahsinning hosil bo'lishini faqat ma'no talab qilgan holatdagina amalga oshishini olimlar alohida ta'kidlaydilar.

Bu gaplarning qofiyali, murodifli va boshqa nozik so'z o'yinlari yordamida gapni ham chiroyli va ta'sirli qilib tuzish uslublarini ko'rsatadi.

Uning bir necha turlari bor:

Balog'at ilmining fonetik vositalarga asoslangan badiiy san'atlaridan biri jinos (الجناس) bo'lib, u mujonasa yoki tajonus (المجانسة) deb ham yuritadilar. Bu gap yoki jumladagi so'zlarning jinsdosh bo'lishi ma'nosida, talaffuz va jarangdorlikda bir-biriga yaqin va o'xshash bo'lishidir. Gapning jarangi va yozilishi bir-biriga mos bo'lib kelgandagina u chiroyli tuzilgan bo'ladi. Ma'nosini o'z holicha qo'yib yuborilaveradi, lekin uni ifodalab bera oladigan va ziynatlaydigan lafzlar bilan kiyintiriladi. Shunda bunday gaplar inson e'tiborini o'ziga jalb etadi, diqqatini quloqqa aylantiradi, yoqimli bo'ladi (Sa'duddin Taftazoniy, 2001:682; Zabixullayev Nuriddin, 2012).

Ta'rifi: الجناس أن يتفق اللفظان في وجه من الوجوه الآتية: بعد مع اختلاف المعنى فيهما

Jinos bu ikki lafzni bir-biriga ushbu sabablarning birida muvofiq kelishidir. Yana bir sharti bu lafzlarning ma'nosi bir-biriga to'g'ri kelmasligidir. Bu sabablar: komil bo'lgan (التام) va komil bo'lmagan (غير التام) ikki xilga bo'linadi.

MUHOKAMA

Balog'at ilmidagi bu badiiy san'at va quyida keladigan boshqa badiiy san'atlarga tadqiqot ob'yektimiz bo'lgan «Navobig' al-kalim» asaridan iqtibos olaylikda va uni lingvistik tahlil qilaylik:

و لَكِنَّ ثَمَّةَ آذَانٍ عَنِ اسْتِمَاعِ الْحَقِّ مَشْدُودَةٌ وَ أَذْهَانٌ عَنْ تَدَبُّرِهِ
(Bu yerda haqiqatni tinglashdan quloqlar to'sib qo'yilgandir va mulohazayu zehnlari tadbiri tafakkurdan man etilgandir).

Jumladagi مَشْدُودَةٌ («mash'dūdatun») va مَصْدُودَةٌ («mas'dūdatun») lafzlar ham jinos (الجناس)ga oiddir. Ulardagi harflar, harflar soni, vazni, tartibi bir xildir faqatgina talaffuz o'rinlari uzoq bo'lgan ص va ش harflariga farq qilgani uchun jinos g'ayri tom (لاحق) lafziy san'atining lohiq (لاحق) turi qo'llanganligini ochiq oydin bilishimiz mumkin.

الجناس التام هو ما اتفق فيه اللفظان في أربعة أشياء — في نوع الحروف و عددها و هيئتها و ترتيبها

Komil bo'lgan jinos ikki lafzning to'rt holatida bir-biriga mos kelishidir. Bular: harflarning turi, soni, shakl-ko'rinishi va tartibidir.

السُّنَّةُ مِنْهَا جِي وَ مِنْهَا أَجِي (Sunnat bu mening undan yuradigan, keladigan yo'limdir. Ubaydullo Uvatov tarjimasi: Muhammad payg'ambar alayhissalomning tutgan yo'llari mening yo'limdir, baxt-u saodatim ham, najotim ham shu yo'ldir).

Bu gapda ham jinosning mashhur navi — murakkab qo'llangan. Aslida komil bo'lgan jinos uch xil bo'ladi: mumosal (المُمَاسِلُ), mustavfo (المُسْتَوْفَى), murakkab. مِنْهَا أَجِي so'zi va جِي so'zi birikma aynan shu san'atga yaqqol misol bo'ladi.

قوله تعالى: وَيَوْمَ نَقُومُ السَّاعَةَ يُقْسِمُ الْمُجْرِمُونَ مَا لَبِثُوا غَيْرَ سَاعَةٍ (الروم، 55)

Qiyomat qoyim bo'ladigan kunda jinoyat-chi kimsalar (dunyoda) bir soatdan ortiq turmaganlariga qasam ichurlar....

Ushbu misolda «السَّاعَةُ» lafzi ikki marta ikki ma'noda ishlatildi. Birinchi «السَّاعَةُ» qiyomat kuni ma'nosida, ikkinchisi vaqt birligi bo'lgan haqiqiy ma'nosida ishlatildi va ular ushbu to'rt holatda bir-biriga mos keldi.

Birinchisi: المماتل ikki lafzning ism, fe'l va harf bo'lishida bir-biriga mos kelishidir.

Ikkinchisi: المستوفى (mustavfo) ikki bir xil lafz boshqa-boshqa so'z turkumlaridan bo'lishidir. Misol: كَوْزَلَرِيم سِزْلَرِغَا عَيْنِي تَقَرُّ بِكُمْ عِنْدَ تَقَرُّكُمْ (Ko'zlarim sizlarga yaqinlashganimda xursand bo'ladi.)

Bu qisqa va lo'nda gapda ham jinosning eng oliy turi komil jinosning mustavfo navi qo'llangan. تَقَرُّ so'zi ko'zning quvonishini anglatadi, fe'li esa yaqinlashmoq ma'nosida kelgan.

Ikki jinos bo'lgan lafzning biri ism, boshqasi harf bo'lganga misol:

كَوْزَلَرِيم سِزْلَرِغَا عَيْنِي تَقَرُّ بِكُمْ عِنْدَ تَقَرُّكُمْ (Ko'p kishilar borki, ichib qo'yar may-musallasin o'zga kishilar.)

Birinchi «رَبِّ» jar harfi, ikkinchisi uzumdan siqib olingan sharobdir. Ikki jinos bo'lgan lafzlarning biri fe'l, boshqasi harf turkumidan kelganiga misol:

عَلَا مُحَمَّدٌ عَلَيْهِ السَّلَامُ عَلَى جَمِيعِ الْأَنَامِ (Hazrati Muhammad alayhissalom barcha insonlardan (barcha fazilatlarida) ustun bo'lsin.)

Birinchi «عَلَا» lafzi o'tgan zamon fe'li (duo, umid mayli), ikkinchisi jar harfidir.

Uchinchisi: المركب har ikki jinos bo'lgan lafzlar yoki ularning biri boshqa-boshqa so'zlardan (yoki so'zning qismlaridan) tarkib topgan, tuzilgan bo'lishidir. Har ikkovi murakkab jinos bo'lganiga misol:

فلم تضع الأعادي قدر شاني
و لا قالوا : فلان قد رشاني

Kamsitmadi g'animlar qadru-sha'nimni,
aytmas bo'ldi ular: pora ila oldi faloni meni.

Birinchi baytdagi jinos lafzlar ikki ismdan
tuzilgan: القدر و الشأن

«qadr-qiymat va sha'n», ikkinchi baytdagi jinos
esa «qadr» tahqiqiya harfi, رشوة – pora olish fe'li hamda
mutakallim zamiridan (I-shaxs birlik olmoshi)
iboratdir. Bunday jinoslarni jinos mulaffaq (o'ylab
topilgan, ixtiro qilingan) deyiladi.

Jinos lafzlarning biri murakkab bo'lishi uch
xildir:

1. Marfu – chegalangan, yamoq qilib yopish;
2. Mutashobah – o'zaro o'xshash;
3. Mafruf.

Marfu (ar. المرفو) - jinos lafzlarning biri butun bir
kalima va ikkinchisi boshqa kalimaning bir qismidan
tuzilgan bo'ladi:

أ هذا مصاب أم طعم صاب؟

Shumi musibat, alamu qayg'u

Yo achchiq alamning erurmi ta'mi?!

Chaplangan, yamalgan va chegalangan deganda,
birinchi lafz «مصاب» to'liq mufrad lafzdir, ikkinchisi
esa «صاب» lafzi achchiq qalampir ma'nosida va
«طعم» kalimasining «الميم» harfi bilan yasaldi.

Mahmud Zamaxshariy ham bir necha o'rinlarda
mazkur san'atni mohirona qo'llagan:

يَا بُنَيَّ قِ فَكْ عَمَّا يَقْرَعُ قَفَاكَ (Ey bo'tam, tilingni
yomon so'zlardan saqla!)

Gapdagi «qi faaka» qismi gapning
so'ngidagi «qofaaka» so'ziga fonetik jihatdan
hamohangdir. Birgina qisqa unlisi bilangina farq
qiladi. Arab tili sarf ilmidan mahlumki, fe'lining
buyruq shakli II-shaxs uchun (قِ shaklda
qo'llanadi. «qi» esa maxsus turlanuvchi beshta
ism so'z turkumidan biri bo'lgan qim so'zining tushum
kelishigida kelgan holatidir.

Mutashobah (ar. المتشابه) – jinos ikki kalimadan
tuzilgan bo'ladi va bu ikki kalima yozuvda bir-biriga
muvofiq keladi.

مَتَى أَصْبَحَ وَأَمْسِي، وَيَوْمِي خَيْرٌ مِنْ أَمْسِي (Tong
orttirganimda va kech kirganda, bugunim kechagi
kunimdan yaxshiroqdir.)

Gapdagi «amisi» so'zlari ikki marta turli
ma'nolarda qo'llanganligi ochiq oydindir: Biri
«kech tushganda» ma'nosida, ikkinchisi «kechagi»
ma'nosida qo'llangan. Bu ikki so'zlar yozuvda bir-
biriga muvofiq kelmoqda.

Mafruf – jinosning shunday turiki, bunda
ikki kalimadan tuzilgan jinos bir-biriga o'xshash

lafzlar bo'lib, yozuvda bir oz farqi bo'ladi (Abul
Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad Ibn
Ya'qub al-Mag'ribiy, 2003, Mavahib al-Fattah fi
sharhi tilxisil miftah. 1-2 juzlar).

الحلية حلية ما لم تطل عن الطليئة (Soqol ziynatdir, agar
bo'yindan uzun bo'lmasa.)

Mazkur gapda ham ohangdosh so'zlar – jinos/
tajnis (حلية لحية طليئة) qo'llangan.

أي مال أديت زكاته – درت برکاته (Qaysi molning
zakoti ado qilingan bo'lsa, uning barakasi mo'l-ko'l
bo'lgan.)

Jumlaning oxiridagi so'zlar so'zi زكاته so'zga
hamohangdir. Bu ham jinos badiiy san'atiga
yaqqol misol bo'la oladi. Bunga bir o'rinda turli
harf (tovush)larni qo'llab (bu fonetik vositalar deb
nomlanadi) erishilgan.

Jinos g'ayri tom (غير التام الجناس) – komil
bo'lmagan jinos ikki bir-biriga o'xshash lafzlarda
so'zning to'rt shakl-ko'rinishlaridan birida o'zgarish
bo'lishidir. Bu shakl-ko'rinish so'zning harflari,
harflarning soni, vazni (mezoni) va tartibidir.

Harfning turida o'zgarish kelgan jinos ikki xil:
muzore' (o'xshash, monand) va lohiq (yopishuvchi)
turlariga bo'linadi.

سَحَابَةٌ وَ قَفَّتْ تَعْلَةٌ وَ وَكَفَّتْ تَحْلَةٌ (Qora bulut bahona
bo'lib to'xtasa, u gunohlardan xalos etuvchi bo'lib
oqib o'tadi.)

so'zlari lafziy san'atlarning jinos
g'ayri tom (غير التام الجناس) ning muzore' (o'xshash, monand)
turiga oiddir, chunki so'zlardagi «kāf» va «qāf» harflarining
talaffuz o'rinlari bir xil (tilning eng oxiri, ya'ni tubi, halqumga yaqin joy)
hisoblanadi. Bu ikki harf tajvid ilmida «lahaviya»
deb ataladi. Bu harflar laha – kichik til yaqinidan
chiqqani uchun shunday nom olgan. تَعْلَةٌ va تَحْلَةٌ
so'zlarida ham xuddi shu lafziy san'atni ko'rishimiz
mumkin. Ularda halqum harflari bo'lgan «ayn» va «haa»
harflariga farq qiladi.

Muzore' (ar. المضارع) shunday jinoski, unda ikki
jinos kalimaning bittadan harflari orasida maxrajlar
har xil keladi. Bu har xillik kalimalarning boshida,
o'rtasida yoki oxirida bo'lishi mumkin.

بَاطِقَةٌ بِكُلِّ زَاجِرَةٍ مُوَظَّةٌ حَائِثَةٌ عَلَى كُلِّ عِزْرَةٍ مُوَظَّةٌ (To'silgan qalblarga so'zlovchi, barcha uyg'otuvchi
ibratlarga undovchidir.)

Gapda «mav'izatun» va «mav'qizatun» (الجناس) lafzlari jinos bo'lib
kelmoqda. Ikki so'zning birgina harflari «ayn»
va «qāf» farq qilishidan yana lafziy san'atlarning
jinos g'ayri tom (غير التام الجناس) ga kiruvchi lohiq
(لاحق) turi qo'llanganiga guvoh bo'lamiz.

Boshida kelganiga misol:

(Men va Bini) بىنى و بى كنى لىل دامس و طريق طامس yashirinadigan joyim orasida zulmatli qorong‘u kecha va yuradigan yo‘lini o‘zi yo‘q bo‘lgan yo‘l bordir).

Bu misolda birinchi lafzdagi «الدال» va ikkinchi lafzdagi «الطاء» harflarining maxraji bir-biriga yaqin bo‘lib, ular til harflaridir.

O‘rtasida kelganiga misol:

Ular undan قوله تعالى: و هم ينهون عنه و يأنون عنه (Islomdan) **qaytaradilar va undan** (o‘zlari ham) **uzoqlashadilar...**

«الهاء» va hamza harflarini talaffuzlari bir-biriga yaqin va maxrajlar halqumdir.

Oxirida kelganiga misol:

قوله صلى الله عليه و سلم: الخيل معقود فى نواصيها الخير (Rasul akram alayhissalom so‘zlari: Otning peshonasiga yaxshilik tugib qo‘yilgandir.)

«اللام» va «الراء» harflari yordamida jinos bo‘ldi va bu harflarning maxraji bir-biriga yaqin bo‘lib, u tildir.

Lohiq (ar. لاحق) – maxrajda bir-biridan uzoq bo‘lgan jinoslardir. Bu ham lafzning boshi, o‘rtasi yoki oxirida kelishi mumkin (Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad Ibn Ya‘qub al-Mag‘ribiy, 2003, Mavahib al-Fattah fi sharhi tilxisil miftah. 1-2 juzlar).

و خُذْ بِأَيْدِنَا إِلَى كَسْبٍ مَا تُحِبُّ وَ تَرْضَى وَ وَقَفْنَا لِمَدَاوَةٍ هَذِهِ الْقُلُوبِ الْمُرْضَى (E Rabb, o‘zing suyib ato etgan narsalarga yetishuvimizda bizni qo‘limizdan tutib yetakla va hashtalangan ko‘ngillarga shifo bag‘ishlab, tuzalishiga yo‘l ko‘rsatib, dalolat ber.)

Jumladagi تَرْضَى («tardo») va الْمُرْضَى («almardo») so‘zlari ikki xil so‘z turkumiga oid bo‘lib, besh harfdan tashkil topgan. Ularning birgina harf farq qilib, qolgan to‘rt harfi bir xil harakatlar bilan kelgan. Birinchisi رَضَى «radiya» fe‘lining hozirgi-kelasi zamon shakli bo‘lib, uning ma‘nosi «sen rozi bo‘ladigan» bo‘lib, ikkinchisi مَرِيضٌ «maridun» so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, u «kasal» qalblar ma‘nosida kelgan. Yana bir ajib jihati, «kasal» qalblar ma‘nosini ifodalash uchun arab tili sarf ilmida harfi illat, ya‘ni kasal harf deb nomlanuvchi alif maqsura harfi ishlatilgan. Bu ham jinosning eng ko‘p uchraydigan turi lohiq (لاحق) lafziy san‘atiga go‘zal namunadir.

اللَّهُمَّ إِنَّ مِمَّا مَنَحْتَنِي مِنَ النِّعَمِ السَّوَاعِجِ إِلَهُامَ هَذِهِ الْكَلِمِ النَّوَاعِجِ (Debochaning mazmuni quyidagichadir: Ey Alloh, Ushbu (qalbimdan) sirtga balqib chiqqan nozik kalimayu iboralarni menga in‘om qilishing, menga

nisbatan fayzing va inoyatingni darig‘ tutmasliging – bular hammasi komil ne‘matlarning tufaylidir).

Kitobning muqaddimasida kelgan السَّوَاعِجِ («as-savābiḡ») va النَّوَاعِجِ («an-navābiḡ») so‘zlarida faqatgina ن («nūn») va م («mīm») harflar farq qiladi. Bu jinos g‘oyri tom (غير التام الجناس) lafziy san‘atining lohiq (لاحق) turiga kiradi. Chunki mazkur ikki harfning talaffuz o‘rinlari bir xil emas, agar ularning talaffuz o‘rinlari ham bir joyda bo‘lganida muzore’ (المضارع) turiga mansub bo‘lardir. السَّوَاعِجِ («as-savābiḡ») so‘zi «sābiḡ») so‘zining ko‘pligidir, النَّوَاعِجِ («an-navābiḡ») so‘zi esa «nābiḡatun») so‘zining ko‘pligi bo‘lib, mos ravishda «to‘la, to‘liq» va «fasohatli so‘z» ma‘nolarni anglatadi.

حَبِّدَا الْوَاقِقُ إِذَا رَعَدَا وَ الصَّادِقُ إِذَا وَ عَدَّ (Momaqaldirarli yomg‘irning yog‘ishi, rostgo‘y (haqgo‘y) kishining vafo qilishi kabi yoqimlidir.)

Hikmatli gapdagi الْوَاقِقُ va الصَّادِقُ so‘zlari o‘zaro, رَعَدَا va وَ عَدَّ so‘zlari o‘zaro qofiyadosh bo‘lib kelmoqda. Bular jinos g‘oyri tomning lohiq turiga mansubdir, chunki ularning har biridagi birinchi harf farqli bo‘lib, ularning maxraji har xildir.

Ushbu jinosda faqat birgina harfda ixtilof bo‘lishi shart qilingan. Agar ikki va uch harflarda ixtilof bo‘lsa, ular orasida jinosi lafziy bo‘lmaydi. نكل و نصر kabi.

Harflarning sonida ixtilof bo‘lgan jinoslar – ikki bir-biriga o‘xshash lafz harflarining soni ortiqroq keladi. U ikki lafz birining harf soni boshqasidan kam bo‘lgani uchun jinosi noqis deyiladi. Uning mutarraf, muktanfi va muzayyal turlari bor.

Lafzning boshida ortiqlik bo‘lsa, uni mutarraf (ar. المطرف) deyiladi:

فَهَبْ لَهَا مِنْ يَرْغَبُ فِي الْأَدَابِ السَّنِّيَةِ السُّنَوِيَّةِ وَالْعِظَاتِ الْحَسَنَةِ الْحُسْنِيَّةِ وَ يَهْتَرُ لِلتَّرْتِينِ لِمَاحِيكَ مِنْ وَشِيهَا وَ صِيغَ مِنْ خَلِيهَا

Bu jumlada ko‘p lafziy va ma‘naviy san‘atlar qo‘llangan bo‘lib, ulardan biri السَّنِّيَةِ («as-sanaviyya») va السُّنَوِيَّةِ («as-sunaviyya») so‘zlaridir. Ularning biridagi yagona harf و («vāv») o‘rtadagi ortiqcha harf bo‘lib kelgan. Bu lafziy san‘at turini balog‘at ilmi olimlari noqis jinosning muktanfi (المكتنف) navi deb ataydilar. Bundan tashqari الْحُسْنِيَّةِ الْحُسْنِيَّةِ so‘zlari ham bir o‘zakdan yasalgan, ya‘ni ishtiyoq mohirlik bilan qo‘llangan. مِنْ خَلِيهَا va مِنْ وَشِيهَا birikmalarini esa saj’ lafziy san‘atiga misol qilib keltirishimiz mumkin.

Lafzning o‘rtasida ziyodalik kiritilgan bo‘lsa, uni muktanfi (ar. المكتنف) deyiladi: جدى جهدى (Baxtim mehnatimdir!)

«الجيم» har ikki lafzda fathalik bo‘lib, ikkinchi lafz o‘rtasida bir harf orttirilgan.

Ilmiy ishimiz bo'lgan «Navobig' al-kalim» asaridagi misol orqali tahlil qilaylik:

السُّوقِيَّةُ كَلَابٌ سَلْوَقِيَّةٌ (Bozorchilar (bozorda oldi-sotdi qiluvchilar) suluqiya itlari misolidirlar (Suluq Yaman viloyatidagi bir qishloqning nomi bo'lib, u yerda faqat ov uchun yaraydigan itlarni – tozilarni asraydilar).)

السُّوقِيَّةُ va سَلْوَقِيَّةُ so'zlari lafziy san'atlarning noqis jinos turiga oid bo'lib, ortiqcha harf o'rtada kelgani uchun muktanfi turi hisoblanadi.

Muzayyal (ar. المذيل) deb lafzning oxirida harf orttirilgan misollarga aytiladi (Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad Ibn Ya'qub al-Mag'ribiy, 2003, Mavahib al-Fattah fi sharhi tilxisil miftah).

So'z harflari hay'atidagi (ko'rinishi, shakli, qurilishi) ixtilof – so'z harflarining joylashishida o'zgarishlar sodir etib, jinosi muzil yasaladi. Uning muharraf va musahhaf turlari bor.

Muharraf (ar. المحرف) – jinos so'zlarning harakat va sukunlarda bir-biridan farqlanadi, ya'ni yozuvda bir xil bo'ladi va harakat va sukunlari turlicha o'qiladi:

جبة البُرد جنة البرد (Teridan bo'lgan chopon, sovuqdan bo'lur qalqon.)

Bu misoldagi «البُرد و البرد» lafzlari o'rtasida jinos muharraf bor, birinchisining harakati zammalik, ikkinchisini esa fatha bilan o'qish kerak bo'ladi:

الجاهل إما مُفَرِّط أو مُفَرِّط (Johil kimsa yo haddan oshguvchidir yo sustkash bo'lguvchidir.)

Birinchisi «ikrom bobi»dan «الإفراط» va boshqasi «takrim bobi»dan «التفريط» masdaridan ishtiyoq qilingan ismi foil vaznida keltirildi.

Jinosi musahhaf (ar. الجناس المصحف) – harflarning nuqtalaridagi o'zgarishlar bilan paydo bo'ladi. Agar ularning har ikkovidagi yoki biridagi nuqtalar olib qo'yilsa, qaysi so'z ekanini farqlab bo'lmasligi kerak.

Harflarning tartibidagi ixtilof, buni jinosi qalb (ar. الجناس القلب) ham deyiladi. Buning to'rt xil turi mavjud:

1. القلب الكل qalb kull – harf tartiblarining har bir o'zgarishi;

2. القلب البعض qalb ba'z – harf tartiblarining ba'zisini o'zgarishi;

3. المجنح mujannah – qanot kabi, ikki tomondan o'zgarishi;

4. المستوى mustaviy – barobar o'zgarish.

Qalbi kulliy ikki jinos bo'lgan so'zning biri oxirgi harfidan boshlab o'qilsa, ikkinchi so'z hosil bo'ladi. Misol:

حُسامه فتح لأوليائه و حنف لأعدائه (Uning shamshiri do'stlari uchun zafar va g'animlariga mahlubiyat, halokatdir.)

lafzlarida qalbi kul, chunki bir kalimani teskaridan o'qilsa, ikkinchisi paydo bo'ladi.

Qalbi juz'iy – so'zning ba'zi qismi teskari o'qishga to'g'ri keladi.

رُبَّ رَعَمَاتٍ يُسَمِّنُ عَرَمَاتٍ (Ko'pincha fisqu fasod qiluvchilar bir narsani gumon qilib, uni haqiqat deb hisoblar, holbuki pirovardida uning noto'g'ri ekanligi ravshan bo'lar.)

Alloma bu hikmatli so'zida ko'pchilar odamlar o'zlari gumonda bo'lgan narsalari borasida to'g'ri deb o'ylab, gumonlari ustida qaror qilishlarini ta'kidlamodalar.

so'zlari lafziy san'atlarning jinos qalb (الجناس القلب) turiga oid bo'lib, so'zlarning boshidagi ز va ع harflarining o'rinlari almashinib kelgani uchun القلب البعض qalb ba'z (harf tartiblarining ba'zisini o'zgarishi) hisoblanadi.

Mujannah – jinos bo'lgan ikki lafzning avvali, o'rtasi yoki oxirida qalb keladi. U ikki qanot kabi bo'lgani uchun ham mujannah deyildi. So'z avvalida kelganiga misol:

قد لاح أنوار الهدى
في كفه في كل حال

Hidoyat nurlari charog'on edi,

Qo'llarida har ahvol, har on!

lafzi birinchi misraning boshida, ikkinchi misrada esa «حال» lafzi oxirida kelgan.

Mustaviy – shunday lafzlarki, agar ularni orqasidan qo'yib o'qilsa bir xil ravishda o'qiladi (Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad Ibn Ya'qub al-Mag'ribiy, 2003, Mavahib al-Fattah fi sharhi tilxisil miftah).

Misol: كل في فلك (يس، 40) **har biri (bir) falakda...**

Ilmi bade'ning ushbu turi haqida ba'zi olimlar katta risolalar bitganlar.

Oxirgi lafzni boshiga qaytarish (ar. الصدر رد العجز على) (Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad Ibn Ya'qub al-Mag'ribiy, 2003, Mavahib al-Fattah fi sharhi tilxisil miftah), bu she'riy va nasriy asarlarda uchraydi.

Nasriy asarlarda ikki takror keluvchi lafzning birini yoki jinsdosh lafz bo'lib, ma'nosining e'tibori bo'lmaydi yoki jinsdoshga yopishib kelgan lafzlar bo'ladi. Bu ikkisini ishtiyoq yoki shibhi ishtiyoq o'zida jamlab keltirish bilan xoh jumlaning avvalida, xoh oxirida amalga oshiriladi.

Takrorlanib kelganiga misol:

قوله تعالى: وَ تَخْشَى النَّاسَ وَاللَّهُ أَحَقُّ أَنْ تَخْشَاهُ (الأحزاب، 37)

...Allohdan qo‘rqishga haqliroq bo‘lgan holingizda, Siz odamlardan (ta‘nalaridan) qo‘rqqan edingiz...

Bu misolda ikki lafz bir ma‘noda va talaffuzda ham bir xil ravishda takror keltirildi. Biri jumlaning avvalida, ikkinchisi esa oxirida keldi.

Jinsdosh bo‘lganiga misol: سائل اللّٰيم يرجع ودمعه
سائل *Baxildan so‘rovchi ortga qaytadi, Holbuki ko‘z yoshi oquvchan bo‘ldi.*

Birinchi jinsdosh lafz «السؤال», boshqasi «السيلان» fe‘llaridan olingan ismi foildirlar.

Jinsdoshga yopishib keladiganiga misol:

قوله تعالى: اسْتَغْفِرُوا رَبَّكُمْ، إِنَّهٗ كَانَ غَفَّارًا

...Rabbingizdan mag‘firat so‘rangiz! Albatta, U (bandalariga nisbatan) o‘ta kechirimli zotdir.

Ushbu misoldagi ikki keltirilgan lafzlarning asl masdari bittadir va u «الغفران» so‘zidir.

Shibhi ishtiyoq bilan yopishganiga misol:

قوله تعالى: قَالَ إِنِّي لِعَمَلِكُمْ مِ الْقَالِي

U aytdi: -Albatta, men sizlarning (bu) ishlaringizni yoqtirmaydiganlardanman.

Bu misolda «قال و قالين» o‘rtasida shibhi ishtiyoq bor bo‘lib, asl harflar talaffuzi tomonidan paydo bo‘ldi. Ular qof va «lom» harflaridir. «قال» ning masdari aytmov, «قالين» ning masdari «قلّى» g‘azablanish, nafratlanish ma‘nosidadir. Demak, ularning masdarlari boshqa-boshqa ekan.

Nazmda oxirgi lafzni boshiga qaytarish – baytning oxirida o‘tgan sifatlardan biri bilan ikki sifatlangan lafzning biri bo‘lishidir. Bu birinchi misraning boshida, o‘rtasida, oxirida yoki ikkinchi misraning boshida keladi.

كَأَنِّي الْفَقْرُ بِهَا مَجْلَّةٌ لِّفَقْمَانٍ وَ أَصِفُ بِهَا حِكْمَةً أَصِفُ سَلِيمَانَ

Bu xuddi men Luqmon pand-nasihatlarini o‘rgatganimdek, ular bilan Sulaymonni tavsiflovchi hikmatlarni sifatlab beraman.

Jumladagi qofiyadosh bo‘lib kelayotgan atoqli otlar لُقْمَانُ («luqman») va سُلَيْمَانُ («sulayman») so‘zlarida faqat oxiridagi bo‘g‘in bir xil bo‘lib kelmoqda. Sulaymon atoqli oti Salmonning kichraytirma shaklidir. Bundan tashqari, biri fe‘l so‘z turkumiga oid أَلْقَى va atoqli ot bo‘lgan لُقْمَانُ so‘zlar jinos (الجناس) bo‘lmasa ham ularda ayni uch o‘zak harflardan foydalanilgan.

الأبُّ أَعْرَفُ وَ أَسْرَفُ وَ الْأُمُّ أَرْأَمُ وَ أَرْأَفُ *Otaga nisbat boshqaga nisbatan sharafliroq va mashhurroq, ya‘ni falonchining o‘g‘li deb atalar, ammo Ona esa shafqatli va matlabliroqdir.*

Sifatning orttirma darajalari (ismi tafzillar) ning barchasi qofiyadosh bo‘lib kelmoqda. Ular sajning (السمع) murassa’ - o‘rnatilgan, bezatilgan) turiga oiddir. Murassa’ - vazn va qofiyada misraning hammasi yoki uning ko‘p qismi mos kelishidir.

الجود والحلم حاتمي وأحنفي ، والدين والعلم حنفي وحنفي

Saxovat va halimlik Hotam va Ahnafga mansubdir, din hanif islomdir, ilm esa Imom Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit ilmidir.

Mahmud Zamaxshariy hanafiy mazhabi vakili bo‘lganidan faxrlangan va bu turli davr tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar qatorida e‘tirof etilgan. Allomaning bir qancha asarlarini tadqiq etib, nashr etgan doktor Bahiyja Boqir al-Hasaniy mashhur muarrix Ibn Xallikonning «Vafayot al-a‘yon»idan, doktor Abdulloh Nazir Ahmad esa Misrlik olim Ahmad Muhammad Hufiyning «az-Zamaxshariy» asaridan Zamaxshariy qalamiga mansub quyidagi nazmni naql qilishgan:

«Dinu e‘tiqodimni, maslaku mazhabimni

Hanafiylarga bog‘ladim, ularni ixtiyor etdim.

Diyonatlari haqiqiy, mazhablari hanafiy

Mashaqqatni talab etmas, yo‘llaridan ravon ketdim (Ahmad Muhammad al-Xufiy, 1980).

Mazkur misralar Mahmud Zamaxshariyning hanafiy mazhabida bo‘lganini anglatadi. She‘rdagi ya‘ni «e‘tiqodimni» deya, aqida borasida ham hanafiy mazhabida ekanini alloma tomonidan e‘tirof etilishi e‘tiborga loyiqdir. Ularning bu mazhabdagi amaliyotlari yuzaki bo‘lmagan, ular Imomi A‘zam Abu Hanifa rahimahullohni chinakam sevganlar, hurmat qilganlar, mazhabiga taqlid qilishni vojib, deb hisoblaganlar, qomuslarda ham Mahmud Zamaxshariy hanafiy mazhabi faqihlari qatorida zikr etilgan. Bunga Qurashiyning (1297-1373) «al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya», Ibn Qutlubog‘aning (1399-1474) «Toj at-tarajim fi tabaqot al-hanafiya» va Yofi‘iyning «Mir‘ot al-jinon» kabi asarlarini misol sifatida keltirish mumkin (Al-Qurashiy Abu Muhammad Abdul-Qodir ibn Abil-Vafa Muhammad ibn Muhammad Misriy, 1910, al-Javohir al-Muziya fi tabaqatil-xanafiya; Ibn Qutlubug‘o, 2001, Tojutarajim fi tabaqotil-hanafiya; Laknaviy Muhammad Abdul-Hayy al-Hindiy, 1902, al-Favoidil-bahiya fi tarajim al-xanafiya). Jumladan, Mahmud Zamaxshariy «Navabig‘ul-kalim» asarlarida: «Ilm va din hanifiy va hanafiyydir!», «Allohnin Yerdagi qoziqlari yuksak tog‘lar bo‘lgani kabi hanifiylikning qoziqlari Abu Hanifa ilmlari bilandir!» va «Buyuk imomlar hanafiylar bo‘lib, ular hanifiy millatning yuganlaridir!», degan e‘tiroflarini maroq bilan

o'qish mumkin. «Hanifiy» deb musulmon ummatini, islom dinini, Ibrohim alayhissalom iftixor qilgan mo'minlik-muslimlikni aytiladi.

Zamaxshariyning tilni me'yorida ishlatish borasidagi fikri ibratlidir: «Aqlli, g'ofil kishining (sukut saqlab) jim turish holati johil, parishon kishining uzridan afzaldir». Shuningdek, tildan chiqqan ma'noli va yoqimli so'zlarga ham Zamaxshariy tomonidan juda go'zal ta'rif berilgan:

رب صدقة من بين فكيك , خير من صدقة من بطن كيك
(«Tilingdan chiqqan sadaqa (ya'ni pandu nasihatining va mav'izayu hasanang) ba'zan qo'lingdan (mol-dunyongdan) chiqqan sadaqangdan ko'ra xayrliroqdir».)

الْبُ أَعْرَفُ وَ أَشْرَفُ وَ الْأُمُّ أَرْأَمُ وَ أَرْأَفُ

Mazkur gapda oltita so'z qat'iy hamza harfi أ harfi bilan boshlangan. Demak, Mahmud Zamaxshariy tavzi' san'atidan ham mohirona foydalangan.

كَمَ مِنْ مُسْلِمٍ مُسْلِمٌ ، وَكَمْ مِنْ كَافِرٍ مُسْلِمٌ

Mazkur gapda ham beshta so'z miim م harfi bilan boshlangan, uchta so'z esa kaaf ه harfi bilan boshlanuvchi so'zlardir.

Demak, Mahmud Zamaxshariy «Navobig' al-kalim» asari balog'atiga xizmat qilgan fonetik vositalardan biri jinos badiiy san'atining barchasi qo'llangan. Uning jinosi tom (uch navi: mumosal, mustavfo, murakkab) va jinos g'oyri tom (muzore' va lohiq) turlaridan, jinos g'oyri tom turi faolroq qo'llangan.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, Zamaxshariy undan tashqari jinosi noqisning ham barcha turlarini (mutarrafi, muktanfi va muzayyal turlari) mohirlik bilan bir necha o'rinlarda qo'llangan.

Mahmud Zamaxshariy badiiy san'atlarni qo'llanganda leksik vositalardan qay tarzda foydalanganini tahlil qilish uchun mazkur lingvistik vositalar haqida ma'lumotlar keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Badiiy vositalarning hosil bo'lishi shu tilda ro'y berishi mumkin bo'lgan tilshunoslik hodisalari chegarasida amalga oshadi. Shunga ko'ra barcha tillarda faol bo'lgan badiiy san'atlar bilan bir qatorda ayrim tillar uchun faol bo'lmagan san'atlar bor. Arab tili uchun faol bo'lgan san'at turlari grammatik xususiyatlariga ko'ra g'arb tilshunosligida o'rganib kelinayotgan fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlardan kelib chiqib tasnif qilindi. Arab xatida yozilgan badiiy asarlarda shu yozuv xususiyatlaridan ham go'zallik namunasi sifatida foydalanganlar. Natijada yozuv san'atiga oid qoidalar

ham shakllangan bo'lib, ular grafik vositalar sifatida tasnifga kiritildi.

Leksik vositalar tavsifi. Mutobaqa mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan san'atlar sirasiga kiradi. Uning tiboq, tatbiq, tazod, takofu, mutazod nomlari ham bor. Arab balog'atida mashhuri tiboq, mutobaqa nomlari bo'lib, san'at hosil qilishda ma'no ustun bo'lgani uchun badi' ilmining ma'naviy san'atlari qatoriga kiritilgan.

Sakkokiy المطابقة هي أن تجمع بين متضادين (mutobaqa ikki zidning birga kelishi), deydi.

Mutobaqa zamonaviy balog'atshunoslarning ta'riflarida bunday: «Tiboq – ikki qarama-qarshi (zid bo'lgan) ma'nolarning bir kalomda kelishi: uzunlik-qisqalik, hayot-o'lim, kulgu-yig'i, oq-qora, ilm-gumrohlik, ulug'lik-tubanlik kabi. Bu tiboqning ijobiy tiboq deb nomlanuvchi turidir». Bunday so'zlar tilshunoslikda antonimlar deyiladi (Rustamiy Salima, 2019, O'rta asrlar balog'at ilmidagi tilshunoslikka oid qarashlar). Demak, antonimlar mutobaqaning bir turini hosil qiladi.

المطابقة هي أن يجمع في كلام واحد بي معنى و مقابلة أو ضده

Mutobaqa – bir kalomda ikki bir-biriga qarama-qarshi ma'nolarni jamlashdir (Zokirjon Sharipov, 2014, Balog'at fani Bayon va bade' ilmlari). U bir so'z turkumidan yoki turli so'z turkumlaridan bo'lgan lafzlardan tuzilishi mumkin.

Muqobalaning ta'rifida o'rta asr olimlari o'rtasida ixtilof yo'qligi kuzatiladi. Muqobalada avval ikki yoki undan ortiq qarama-qarshi bo'lmagan ma'nolar, so'ngra ularning har biriga mos keluvchi qarshi ma'nolar tartib bilan keltiriladi. Muqobala hosil qilayotgan ma'nolar soniga ko'ra bir necha turga bo'linadi. U kamida ikki ma'no va uning muqobili orasida, ya'ni ikkiga ikki bo'lishi kerak.

Balog'atshunoslar mutobaqani haqiqiy va e'tiboriy taqobullarga ajratadilar. Haqiqiy taqobul bir vaqtda bir joyda va bir jihatdan birga bo'lishning mumkin emasligi bo'lsa, e'tiboriy taqobul oralarida qarama-qarshilik bo'lmagan ikki narsani bir-biriga zid qilib ifodalashdir.

Haqiqiy taqobulning yuqorida keltirilgan tazod, shuningdek, tazoyuf, adamu malaka, ijobu salb turlari bor. Arab balog'atshunoslari mutobaqa bitta so'z turkumiga yoki ikki so'z turkumiga oid bo'lgan so'zlardan iborat bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Mutobaqa san'ati nafaqat arab, fors, balki turkiygo'y shoirlar ijodida ham unumli qo'llangan va tazod, mutazod nomi bilan mashhur bo'lgan. Mumtoz adabiyot badiiyatini tadqiq qilayotgan

o'zbek adabiyotshunoslari bu san'atni ham e'tibordan chetda qoldirmaganlar. Lekin, Ahmad Taroziy ham, zamona adabiyotshunoslari ham mutobaqaning turlari xususida alohida to'xtalmaganlar va umumiy ma'lumot bilan chegaralanganlar. Ba'zi adabiyotlarda arab balog'atshunoslari ma'noviy, ajam olimlari lafziy ma'noviy deb e'tirof etgan bu san'at lafziy san'atlar orasiga tushib qolgan, ayrimlarida istilohlarning o'qilishida xatoliklar uchraydi, ya'ni «mutobiqa» emas «mutobaqa», «taboq» emas «tiboq» bo'lishi kerak.

Demak, arab, fors va o'zbek adabiyotida keng qo'llanadigan mutobaqaning ta'rifida olimlar o'rtasida ixtilof yo'q. Lekin, shuni ta'kidlash lozimki, fors balog'atida arabiyda mavjud bo'lgan mutobaqaga oid qarashlar rivojlantirilgan va turlari jihatdan boyitilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotida shu kunning tadqiqodtalab masalalaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi barcha misollarda taqobul - qarama-qarshilik ochiq keldi. Ammo ba'zan u maxfiy-yashirin ham bo'lishi mumkin.

قوله تعالى: أغرقوا فأدخلوا نارا

G'arq qilindilar keyin do'zaxga kiritildilar.

Afsuski, الإغراق cho'ktirish va الإدخال kiritish o'rtasida ma'noda teskari bo'lib moslanish yo'q. Balki, الإغراق ni muqobali الإحراق - kuydirish bo'ladi. Ya'ni أغرقوا فأحرقوا فأدخلوا نارا Cho'ktirildilar keyin kuydirildilar keyin do'zaxga kiritildilar. (Ho'llandilar keyin quritildilar). Mana endi bu misolda muqobala maxfiy – yashirin ekani ma'lum bo'ldi.

Demak, muqobala bir kalomda ikki va undan ko'p bir-biriga teskari ma'nodagi lafzlarni to'plab gap chiroyli va betakror qilish ekan.

المقابلة هي أن يؤتى بمعني غير متقابل أو أكثر ثم يؤتى بما

يقابل كلاً على الترتيب اللفظي

Muqobala – avval ikki va undan ko'p bir-biriga teskari bo'lmagan ma'nolarni keltirib, keyin har bir ma'noga mos ravishda, tartib bilan uni teskarisini zikr qilishdir (Zokirjon Sharipov, 2014:231-232). Muqobala ikkitadan to oltitagacha ma'nolar o'rtasida bo'lishi mumkin. Mutobaqadan farqi ham shunda, mutobaqa bir kalomda bir ma'noga ziddini keltirish bilan kifoyalanadi. Muqobalada esa bir kalomda bir necha bir-biriga qarama-qarshi ma'nolar jamlanadi va shunisi bilan chiroyli gap tuzishga yo'l ko'rsatadi.

Demak, muqobala mumtoz adabiyotda keng qo'llangan san'at turlaridan hisoblanib, uni ayrim olimlar ma'noviy, ayrimlari lafziy ma'noviy deb hisoblaydilar. Unga arab va forsiy manbalarda o'tmish olimlari tomonidan aniq va ravshan ta'rif berilgan. Bu san'at tazodga yaqin tursa-da, ko'pchilik

olimlar uning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib alohida san'at turi deb hisoblaganlar.

Quyidagi gaplarning barchasida mutobaqa qo'llangan:

صعود الأكام وهبوط الغيطان ، خير من القعود بين الحيطان

Baland tog'larga ko'tarilib va pasliklarga tushib safar qilish uyda, devorlar ichida, mashaqqatlar orasida o'tirish yaxshidir.

Gapdagi ko'tarilib va tushib so'zlari muqobalani tashkil qilmoqda.

يا دنيا تحلين لأولادك ثم تمرين ، وتحلين ثم تمرين

Ey dunyo, o'z farzandlaringga avvalida totli (shirin) ko'rinasan, so'ngra achchiqroq tuyulasan, ularga qarashasan – oxirida ulardan kechib, ayrilasan.

Mazkur gapda esa totli (shirin) va achchiqroq so'zlari go'zal muqobalani tashkil qilmoqda.

اللّئيم مَلُومٌ بِكُلِّ لِسَانٍ ، وَالكَرِيمُ مُكَرَّمٌ فِي كُلِّ مَكَانٍ

Yomon, xasis kishi har bir tilda la'natlanadi (malomat eshitadi), saxiy, karim kishi har joyda izzat-u ikromda bo'ladi.

Mazkur gapda esa yomon, xasis kishi va saxiy, karim kishi so'zlari go'zal muqobalani tashkil qilmoqda.

إِنْ صَحَّ السَّرَّ صَحَّ الْعَلَنُ وَإِنْ لَمْ يَصِحَّ فَلَنْ وَلَنْ

Odamning sirtiyl botini (ichi) to'g'ri bo'lsa, salomat va tuzuk bo'lsa, uning zohiri (tashqarisi) ham saxiy va salim bo'lur.

Gapdagi السَّرَّ («as-sirru») va الْعَلَنُ («al-alanu») so'zlari ma'naviy san'atlardan bo'lgan mutobaqaga (tazod, zidlash) yaqqol misol bo'ladi.

الْعُلْمُ جَبَلٌ صَعْبٌ الْمَصْعَدُ ، وَلَكِنَّهُ سَهْلٌ الْمُنْحَدَرُ

وَالْجَهْلُ مَنَهْلٌ سَهْلٌ الْمَوْرِدُ ، إِلَّا أَنَّهُ صَعْبٌ الْمَصْدَرُ

(Ilmli bo'lish bir baland toqqa chiqish kabi ko'p mashaqqatlidir, lekin undan tushish osondir, johilligi nodonlik bulog'i u ko'p qiyinchiligi azoblarga giriftor qiladi.)

Mazkur gapda muqobaqadan tashqari tashbihning go'zal namunasini ham ko'rishimiz mumkin. Yanada teran anglashimiz uchun tashbih haqida qisqacha ma'lumot keltirib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Arab balog'atiga bag'ishlangan asarlarda tashbihga keng o'rin berilgan bo'lib, u bir necha jihatlariga ko'ra tasniflangan. Olimlar tomonidan uning al-mushabbah, al-mushabbah bih, odatu-t tashbih, vajhu-t-tashbih kabi to'rtta rukni, at-tashbihi-l-mursal, at-tashbihi-l-mu'akkad, at-tashbihi-l-mujmal, at-tashbihi-l-mu fassal, at-tashbihi-l-balig' kabi qismlari, tashbihi-t-tamsil, at tashbihi-d-dimniy, at-tashbihi-l-maqlub va boshqa turlari ko'rsatilgan. Birinchi tasnif

uning tarkib qismlari, ya'ni ruknlariga asoslangan. Tashbihning ruknlari to'rtta, ya'ni mushabbah – o'xshatiluvchi, mushabbah bih – o'xshovchi, vajhu-sh-shibh – o'xshash jihati va odotu-t-tashbih – o'xshatish vositasi (yoki bu qism «kalimatu-t-tashbih» – «o'xshatish so'zi» deb ham nomlanadi) bo'lib, bu borada hozirgacha arab va ajam olimlari orasida ixtilof bo'lmagan.

العَرَبُ نَبْعُ صَلْبِ الْمَعَامِجِ , وَالْعَرَبُ مِثْلُ الْأَعَامِجِ (Arablar toifasi nab'a (qattiq) mustahkam yog'ochi singari ham quvvatli, ham yuraklidir, ajamlar (g'ayri arablar) esa tarab (bo'sh, mo'rt) yog'ochi kabi yumshoqdirlar.)

الْمَرْءُ يَقْدِمُ ثُمَّ يُحْجِمُ وَ النَّوْءُ يُنْجِمُ ثُمَّ يُنْجِمُ (Er kishi goh olg'a bosar, goh orqaga chekinar, Mashriqdan chiqib Mag'ribga botadigan tong va oqshom yulduzlari (an-Nav') ham goh yomg'ir yog'dirib, goh uni to'xtatadi-ku!)

Yana tadqiqot ishimiz ob'yekti bo'lgan «Navobig' al-kalim» asaridan olingan jumlada ham shu san'atning qo'llanganligini keltirsak:

فِي قَرْعِ بَابِ اللَّيْمِ ، قَلْعُ نَائِبِ الْكَرِيمِ

(Yaramas va xasis kishining eshigini taqillatishda saxiy va mo'tabar kishining oziq tishini sug'urish bilan barobar ranju izza bordir. Ya'ni, saxiy kishi ishi tushib zaruratdan xasis odamning eshigini qoqsa, u buni o'zining oziq tishini sug'urtirgandek ozoru aziyat chekkan holda qiladi.)

Gapdagi اللّيم («al-la'im») va الكريم («al-karim») so'zlari ma'naviy san'atlardan bo'lgan mutobaqaga (tazod, zidlash) yaqqol misol bo'ladi. Chunki اللّيم («al-la'im») so'zi semasi lug'atga ko'ra 1) past, tuban, razil; 2) baxil, xasis bo'lsa, الكريم («al-karim») so'zi saxiy ma'nosini bildiradi. Bu mutobaqa hosil qilgan ikki so'z ham arab tili grammatikasidagi ism so'z turkumiga oiddir.

مَخَايِلُ الْغَمِّ وَالْمَسَرَّةِ ، تَبْكِي وَتَضْحَكُ فِي الْأَمْسِيرَةِ (G'am-g'ussa va shodlikning alomatlari shundaydir: g'am-qayg'u yig'latur, shodlik kuldurur – bu belgilar manglay (yuz-peshona) dan ma'lum bo'lur.)

مَسَرَّة («masaratun») so'zi xursandlik, mamnuniyat ma'nolarini anglatadi. مَخَايِلُ va مَخَائِلُ so'zlari مَخِيلَةٌ («makhilatun») so'zining ko'plik shaklidir. Bu so'zning asosiy semasi quyidagichadir: 1) sifat, fazilat 2) belgi, alomat. Muallif so'zni ikkinchi ma'nosida ishlatmoqda. Bu gapda ikki juft mutobaqa san'ati qo'llangan bo'lib, bular g'am-qayg'u – shodlik va yig'latish – kuldirish, ya'ni bir jumlada ham ism so'z turkumi va fe'l so'z turkumidan mutobaqa san'ati mohirona qo'llangan.

Gapdagi الغَمّ («al-ğammu») va الْمَسَرَّة («al-masaratu») so'zlari ma'naviy san'atlardan bo'lgan mutobaqaga (tazod, zidlash) yaqqol misol bo'ladi.

Ikkovi fe'l bo'lganiga misol:

مُخَلِّبُ الْمَعْصِيَةِ يَقْصُ بِالْإِدَامَةِ ، وَجَنَاحُ الطَّاعَةِ يُوْصِلُ بِالْإِدَامَةِ

(Ma'siyat (gunoh) ning tirnoqlari nadomatu o'kinch bilan kesilur, toat-ibodatning qanotlariga mudom ijti'od bilan erishilur.)

Gapdagi يَقْصُ («yuqossu») fe'li I-bob muzoaf (ikkilangan) fe'li bo'lib, u majhul nisbatda ishlatilgan. fe'li «An-na'ym» lug'atiga ko'ra quyidagi ma'nolarni anglatadi: 1) izdan bormoq; 2) (kimgadir) hikoya (bayon) qilib bermoq. (qaychi bilan) qirqmoq, kesmoq, soch olmoq, taroshlamoq (An-Na'im lug'ati, 2003, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti).

يُوْصِلُ («yūsolu») fe'li I-bob fe'li bo'lib, u ham majhul nisbatda ko'llangan. Mazkur ikki fe'llar ma'noda o'zaro zid bo'lib, mutobaqa badiiy san'atini hosil qilmoqda.

كَمْ رَأَيْتُ مِنْ أَعْرَاجَ ، فِي دَرَجِ الْمَعَالِي أَعْرَاجَ
وَمِنْ صَحِيحِ الْقَدَمِ ، لَيْسَ لَهُ فِي الْخَيْرِ قَدَمٌ

(Necha oqsoq odamlarni ko'rdimki, ilm-fazilat boblarida ular yuqori nog'orolar (darajalar) ga ko'tarilganlar, shuningdek, qanchadan-qancha sog'lom oyoqlilarni ham ko'rdimki, ular xayr-ehson yo'lida biror qadam ham bosmaganlar (bu o'rinda az-Zamaxshariy o'zining oqsoqligiga ham ishora qilayotir).)

XULOSA

Mahmud Zamaxshariy «Navobig' al-kalim» asari balog'atiga xizmat qilgan fonetik vositalardan biri jinos badiiy san'atining barchasi qo'llangan. Uning jinosi tom (uch navi: mumosal, mustavfo, murakkab) va jinos g'oyri tom (muzore' va lohiq) turlaridan, jinos g'oyri tom turi faolroq qo'llangan.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, Zamaxshariy undan tashqari jinosi noqisning ham barcha turlarini (mutarraf, muktanfi va muzayyal turlari) mohirlik bilan bir necha o'rinlarda qo'llangan.

Badiiy vositalarning hosil bo'lishi shu tilda ro'y berishi mumkin bo'lgan tilshunoslik hodisalari chegarasida amalga oshadi. Shunga ko'ra barcha tillarda faol bo'lgan badiiy san'atlar bilan bir qatorda ayrim tillar uchun faol bo'lmagan san'atlar bor. Arab tili uchun faol bo'lgan san'at turlari grammatik xususiyatlariga ko'ra g'arb tilshunosligida o'rganib kelinayotgan fonetik, morfologik, leksik va

sintaktik xususiyatlardan kelib chiqib tasnif qilindi. Arab xatida yozilgan badiiy asarlarda shu yozuv xususiyatlaridan ham go'zallik namunasi sifatida foydalanganlar. Natijada yozuv san'atiga oid qoidalar ham shakllangan bo'lib, ular grafik vositalar sifatida tasnifga kiritildi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Uvatov Ubaydulla. (1992). Abu-l-Qosim Mahmud Az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. Toshkent: Kamalak.
2. Саъдуддин ат-Тафтазоний. Ан-Ниъам ас-савобигъ фи шарҳ ин-навобигъ.
3. Ali Muhammad Hasan. (2005). Asroru-l-bayon, Qohira.
4. Rustamov Alibek. (1971). Mahmud Zamaxshariy. Toshkent, Fan.
5. Uvatov Ubaydulla. (2011). Mahmud Zamaxshariy. Toshkent: O'zbekiston.
6. Islomov Z., Saidjalolov S. (2011). Mahmud Zamaxshariy va fiqh ilmi. Toshkent: Movarounnahr.
7. Abdirashidov Z. (2004). Zamaxshariy va uning «Al Kashshof» asari //Imom al-Buxoriy saboqlari. № 1.
8. Zokirjon Sharipov. (2014). Balog'at fani Bayon va bade' ilmlari. Toshkent: Movarounnahr nashryoti.
9. Bahouddin Abu Homid Ahmad ibn Ali ibn Abdil Kofiy as-Subkiy. (2001). Urusul Afrohi fi sharhi talxisil miftahi. J. 1-4. Bayrut-Livan: Dor al-Kutubil ilmiyya.
10. Brokkelman K. (1977). Arab adabiyoti tarixi. Qohira: Dar al-ma'arif.
11. Islomov Z. (2020). Muqaddamatu-l-adab» asarining manbashunoslik va matnshunoslik tadqiqi. Monografiya. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent.
12. Islomov Z. (2002). Mahmud Zamaxshariy. Buyuk allomalarimiz. Toshkent: Toshkent islom universi V A. Laknaviy, Al-jawahir al-muziyya fiy tabaqot al-hanafiya. Bayrut: Shirkat dar.
13. Laknaviy A. (1998). Abulqosim Jorulloh az Zamaxshariy. V A. Lucknawi, Al-jawahir al-mudiyya fiy tabaqat al-hanafiya. Beirut: Shirkat dar.
14. Mirafzalov M. (1996). Sa'duddin Taftazoniy va balog'at ilmlari. Sharq mash'ali. Toshkent.
15. Muhammad Abu Muso. (1988). Al-balog'a al-Qur'oniya fiy tafsir az-Zamaxshariy asaruho fiy ad dirasat al-balag'iya. Qohira: Maktaba al-vahba.
16. Rustamiy Salima. (2019). O'rta asrlar balog'at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. Toshkent: Zilol buloq.
17. Sa'duddin at-Taftazoniy. An-Ni'am as-savobig' fi sharh in-navobig'.
18. Sharifov Z. (2002). Balog'at fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent: Movarounnahr.
19. <https://qadriyat.uz/tarix/639-mavlaviy-indistonij>
20. <https://e-tarix.uz/shaxslar/335-zamaxshariy.html>
21. <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/454>
22. <https://kukaldosh.uz/28/02/2018/603>

REFERENCES

1. Uvatov Ubaydulla. (1992). Abu-l-Qosim Mahmud Az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. Tashkent: Kamalak.
2. Sa'duddin Taftazani. Al-Ni'am al-sawabigh fi sharh al-nawabigh.
3. Ali Muhammad Hasan. (2005). Asraru-l-bayan, Cairo.
4. Rustamov Alibek (1971). Mahmud Zamaxshariy. Tashkent: Fan.
5. Uvatov Ubaydulla. (2011). Mahmud Zamaxshariy. Tashkent: O'zbekiston.
6. Islomov Z., Saidjalolov S. (2011). Mahmud Zamaxshariy va fiqh ilmi. Tashkent: Movarounnahr.
7. Abdirashidov Z. (2004). Zamaxshariy va uning «Al Kashshof» asari //Imom al-Buxoriy saboqlari. № 1.
8. Zokirjon Sharipov. (2014). Balog'at fani Bayon va bade' ilmlari. Tashkent: Movarounnahr publishing house.
9. Bahouddin Abu Homid Ahmad ibn Ali ibn Abdil Kofiy as-Subki. (2001). Urusul Afrahi fi sharhi talkhisil miftahi. 1-4 vols. Beirut: Dar al-Kutubil ilmiyya.
10. Brokkelman, K. (1977). Arab adabiyoti tarikhi. Cairo: Dar al-maarif.
11. Islomov Z (2020). Muqaddamatu-l-adab» asarining manbashunoslik va matnshunoslik tadqiqi. Monography. Tashkent: Publishing association of the International Islamic Academy of Uzbekistan.
12. Islomov Z. (2002). Mahmud Zamaxshariy. Buyuk allomalarimiz. Tashkent: Tashkent Islamic University.
13. Laknaviy A. (1998). Abulqosim Jorulloh az Zamaxshariy. V A. Lucknawi, Al-jawahir al-mudiyya fiy tabaqat al-hanafiya. Beirut: Shirkat dar.
14. Mirafzalov M (1996). Sa'duddin Taftazoniy va balog'at ilmlari. Sharq mash'ali. Tashkent.
15. Muhammad Abu Musa (1988). Al-Balagha al-Qur'aniyya fi tafsir az-Zamakhshari atharuha fi ad dirasat al-balaghiya. Cairo: Maktaba al-Wahba.
16. Rustamiy Salima. (2019). O'rta asrlar balog'at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. Tashkent: Zilol buloq.
17. Sa'duddin at-Taftazani. An-Ni'am as-sawabigh fi sharh an-nawabigh.
18. Sharifov Z. (2002). Baloghat fanidan ma'ruzalar matni. Tashkent: Movarounnahr.
19. <https://qadriyat.uz/tarix/639-mavlaviy-indistonij>
20. <https://e-tarix.uz/shaxslar/335-zamaxshariy.html>
21. <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/454>
22. <https://kukaldosh.uz/28/02/2018/603>

